

# **Ikki Tomonlama Investitsiya Bitimlariga Asoslanuvchi Investitsiya Nizolarini Ko'ruvchi Arbitraj Davlat Suverenitetiga Haqiqatan ham Katta Xavfmi?**

**Umirdinov Alisher<sup>1</sup>**

## **1. Qisqacha tarix**

20-asrning ikkinchi yarmida juda ko'p mustamlaka ostida qolgan davlatlar o'zlarining mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida ularning hududida qolgan mustamlakachi davlatlar fuqarolarining mol-mulkingning huquqiy himoyasi muammosi o'rta chiqdi. Qo'shimcha tarzda, ushbu yangi mustaqillikka erishgan rivojlanayotgan davlatlarga qilingan to'g'ri-dan to'g'ri xorijiy investitsiya (*foreign direct investment, FDI*) ning huquqiy himoyasini taminlash masalasining muhimligi ham sezilib qoldi.<sup>2</sup> Natijada turli takliflar yuzga chiqdi. Shulardan biri bu- ikki tomonlama investitsiyani himoyalash va ularni oshirishga doir bitimlarni (*Bilateral Investment Treaties, BIT*) tuzish orqali xorijiy investorlarga huquqiy himoyani taminlash edi. Ushbu bitimlarda davlatlar agar narigi taraf investori bilan huquqiy nizo chiqqan taqdirda xalqaro arbitrajda ushbu nizolarni hal qilishga o'z roziliklarini berishgan. Bunday bitimning birinchisi 1959 yili Germaniya Federativ Respublikasi (G'arbiy Germaniya) va Pokiston o'rtasida tuzilgan.<sup>3</sup> Ana shu paytdan boshlab BITlarning soni osha bordi va kunimizga kelib ular 3000dan oshdi.<sup>4</sup>

(*Qarang, UNCTAD (2)*)<sup>5</sup>

---

<sup>1</sup> Nagoya Iqtisodiyot Universiteti dotsenti

<sup>2</sup> Qarang, Vandeveld, Kenneth J., A Brief History of International Investment Agreements. U.C. Davis Journal of International Law & Policy, Vol. 12, No. 1, p. 157, 2005; Thomas Jefferson School of Law Research Paper No. 1478757.


<sup>3</sup> Qarang, J. Karl, 'The Promotion and Protection of German Foreign Investment Abroad' (1996) 11 ICSID Rev 1.

<sup>4</sup> Qarang, UNCTAD, Recent Trends in IIAs and ' , No.1, February 2015,

[http://unctad.org/en/PublicationsLibrary/webdiaepcb2015d1\\_en.pdf](http://unctad.org/en/PublicationsLibrary/webdiaepcb2015d1_en.pdf)

<sup>5</sup> Qarang, <http://www.bilaterals.org/?unctad-releases-review-of-trends>

**Figure 1. Trends in IIAs signed, 1980–2014**



Source: UNCTAD, IIA database.  
Note: Preliminary data for 2014.

### ***BITlarning asosiy maqsadi nima va uning oziga xos hususiyatlari nimadan iborat?***

BITlar moddiy va prosessual moddalardan tashkil topgan xalqaro bitimlar bolib, ularda davlat xorijiy investorlarning mol-mulki noqonuniy ekspropriatsiya qilmaslik, eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejimni berish, noo'rin diskriminatsiya qilmaslik, va nizo chiqqan taqdirda esa xolis bo'lgan halqaro arbitraj sudlarida ishni ko'rishga roziligini beradi. Uning muhimligi shundaki, davlatlar shu paytgacha xususiy shaxslarga, ya'ni bu erda xorijiy kapital va texnologiya egalariga, o'rtalarida nizo chiqqan taqdirda o'zini xalqaro arbitrajga da'vo qilinish huquqini berayotganligidir. Bunday holat xalqaro huquqda nodir kuzatilgan holat desak mubolag'a bo'lmaydi.<sup>6</sup>

***Xo'sh, natijada nima yuz berdi?*** 1980 yillar ohiridan boshlab, investitsiya qilgan davlatlarida turli xil muammolarga uchragan xorijiy investorlar BITni ishga solishni o'ylab qolishdi va bu narsa yuz berdi. 1987 yilda birinchi bo'lib ishlatilgan BIT Shri Lanka bilan Buyuk Britaniya o'rtasida tuzilgan 1980 yildagi BIT bo'ldi. Ushbu da'voda Shri Lanka hukumatining investor firmasining qo'zg'alonchilardan himoya qilinmaganligi ishning bosh muammosiga aylandi.<sup>7</sup> Shundan boshlab investorlar o'zlari investitsiya qilgan rivojlanayotgan davlatlarni asta-sekin xalqaro arbitraj sudlariga berishni boshlashdi.<sup>8</sup> Garchi, oldinlari siyosiy yo'l bilan hal qilinib kelingan bunday muammolarning huquq yo'li bilan hal qilinishi (de-politization) yaxshi holat bo'lsa ham, investorlarning nizolashayotgan davlatlarga nisbatan

<sup>6</sup> Albatta, ba'zi bir mintaqaviy inson huquqlarini himoyalovchi tashkilotlar, masalan, Evropa Inson Huquqlari Sudi, Inter-Amerika Inson Huquqlari Sudida ham bunday imkoniyat cheklangan tarzda mavjud.

<sup>7</sup> Qarang, Asian Agricultural Products Ltd (AAPL) v. Sri Lanka, Final Award, 27 June, 1990.

<sup>8</sup> Bu erda xalqaro arbitraj deganda- toq sondagi arbitrlardan iborat boladigan doimiy organ ostidagi yoki faqat ma'lum bir ishning o'zi uchun tashkil etiladigan hakamlik sudi nazarda tutiladi. Bunday sudlarning eng mashhuri Vashington konvensiyasiga asoslanib tuzilgan ICSID markazi bo'lib, unda hozirda nizolarning deyarli 60%i ko'riladi. Chunki, unga dunyoning 150ga yaqin davlatlari a'zo bo'lgan. Yana ham muhimi, aynan ushbu konvensiyaga asoslanib ICSID sekretarligi qoshidagi institutda hal qilingan davolar bo'yicha qarorlar aybdor davlat hududidagi mahalliy sudlarning tan olish prosesidan o'tkazilmasdan to'g'ridan-to'g'ri ijro etiladi.

qilgan da'volari hajmi ba'zan milliard AQSH dollaridan ham oshib ketmoqda. Bundan ruhlangan xalqaro investorlar jamiyati esa rivojlanayotgan davlatlarning ishonchsiz va to'liq mustaqilligi taminlanmagan ichki sudlarining qarorlariga ishonmasdan xolis bolgan (shunday deya iddao qilinadi) investitsiya arbitraj sudlariga ishlarni ketma-ket olib kela boshlashdi. 2017 yil May oyi hisobi bo'yicha bunday ishlarning soni 767 tadan oshib ketdi.<sup>9</sup>

## **2. Ozbekiston va investitsiya arbitraji**

Yurtimiz ham qirq to'qqizta shunday turkumidagi bitimlarni imzolagan.<sup>10</sup> Garchi ularning aksariyatini ikki tomonlama investitsiya bitimlari tashkil etsa-da, Energiya Xartiyasi yoinki Islom Hamkorlik Tashkiloti Investitsiya Bitimi kabi ko'ptomonlama bitimlarga ham a'zo bo'lganligini takidlash zarur. Ushbu ko'ptomonlama bitimlarda O'zbekiston taraf sifatida shu paytgacha nizolarda qatnashmagan bo'lsada, aytish joizki, Energiya Xartiyasiga asoslanib davlatlarni halqaro arbitrajga chaqiruvchi nizolar yil sayin ortib bormoqda. Bu ham energiya zahiralari va o'sha sohaga kirgan investitsiyalarga boy yurtimiz uchun Energiya Xartiyasiga muvofiq ish olib borishning qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston tuzgan BITlarning boshqa bir xususiyati shundaki, ularning ko'pchiligi 1990-yillarda tuzilgan eski model BITlari hisoblanib, yangi avlod BITlariga esa Yaponiya bilan 2008 yilda tuzilgan bitim kiradi. Ushbu ikki tur BITlar ortasida anchagina katta farqlar mavjuddir. Misol olaroq, eski avlod BITlarining moddalari oz, umumiy tarzda bayon etilgan va ko'pincha bir-birlariga juda ham o'xshashadi. Yangi avlod BITlari esa ancha mufassal, moddiy va prosessual qoidalar atroficha yoritilgan, investitsilar kirib kelishi uchun bozorni liberallashtirish majburiyatlari kiritilgan va xatto bitim so'nggida taraflarning bir-biri uchun bergan konsessiyalariga ko'rsatilgan. Bu holat ham mamlakatlarning investitsiya nizosi paytida BITlarning arbitrlar qo'lida qay darajada kuchli qurol bo'lishini anglab etganliklarini yaqqol ko'rsatadi.

Chunki huquqiy munosabat bor joyda, fikrlar qarama-qarshiligi va bir shartnoma moddasining amaliyotdagi turlicha sharxlanishi tabiiy bir holdir. Shunday ekan, bunday nizolarning anchagina murakkab bo'lgan xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirishda chiqib kelishi juda ham tabiiy bir holat hisoblanadi. Ozbekiston ham bundan mustasno emas. O'zbekistonning investitsiya salohiyati eng katta davlatlarning biri sifatida yurtimizga nisbatan bir necha investitsiya arbitrajida nizolar boshlangan. Oshkora qilingan ma'lumotlarga ko'ra, bugungacha yurtimizga jami bo'lib 10 ta ish qo'zg'atilgan, ulardan 2 tasi kelishuv yoli bilan hal etilgan bolsa, 4 ta ish investitsiya arbitraji tomonidan ko'rib chiqilgan va qolgan 4 ta ish esa hali ham davom etmoqda.

---

<sup>9</sup> Qarang, UNCTAD, IIA Issues Note, May 2017.

[http://investmentpolicyhub.unctad.org/Upload/Documents/diaepcb2017d1\\_en.pdf](http://investmentpolicyhub.unctad.org/Upload/Documents/diaepcb2017d1_en.pdf)

<sup>10</sup> Qarang, UNCTAD, Investment Dispute Settlement Navigator, Investment Policy Hub,

<http://investmentpolicyhub.unctad.org/ISDS/CountryCases/226?partyRole=2>

## O'zbekiston Respublikasiga nisbatan investor tomonidan qo'zg'atilgan ishlar<sup>11</sup>

Ishlar	Tadbiq etilgan normalar	Status/Forum
1. Bursel Tekstil v. Uzbekistan (2017)	Turkey-Uzbekistan BIT (1992)	Davom etmoqda. ICSID Case No. ARB/17/24
2. Federal Elektrik v. Uzbekistan (2013)	Turkey-Uzbekistan BIT (1992)	Davom etmoqda; ICSID Case No. ARB/13/9
3. Güneş Tekstil v. Uzbekistan (2013)	Turkey-Uzbekistan BIT (1992)	Davom etmoqda; ICSID Case No. ARB/13/19
4. Kim v. Uzbekistan (2013)	Kazakhstan-Uzbekistan BIT (1997)	Davom etmoqda; ICSID Case No. ARB/13/6
5. Spentex v. Uzbekistan (2013)	Netherlands-Uzbekistan BIT (1996)	Davlat foydasiga hal etildi; ICSID Case No. ARB/13/26
6. Oxus Gold v. Uzbekistan (2011)	United Kingdom-Uzbekistan BIT (1993)	Qisman O'zbekiston foydasiga hal etildi; UNCITRAL
7. Metal-Tech v. Uzbekistan (2010)	Israel-Uzbekistan BIT (1994)	Davlat foydasiga hal etildi; ICSID Case No. ARB/10/3
8. Romak v. Uzbekistan (2006)	Switzerland-Uzbekistan BIT (1993)	Davlat foydasiga hal etildi; PCA Case No. AA280
9. MTS v. Uzbekistan (2012)	Investment Law - Uzbekistan (1998)	Kelishuv asosida tugatilgan; ICSID Case No. ARB(AF)/12/7
10. Newmont v. Uzbekistan (2006)	Investment Law - Uzbekistan (1998)	Kelishuv asosida tugatilgan; ICSID Case No. ARB/06/20

### 3. Xosh, nima qilish lozim?

***BITga asoslangan investitsiya arbitrajining nimasi muammoli? Nega unga nisbatan davlat suverenitetiga xavfdeb qarash kerak?***<sup>12</sup> Ushbu mavzu bugunki kunda AQSH va uning hamkorlari, xususan Evropa Ittifoqi va Tinch okeani havzasidagi davlatlar o'rtasida tuzilayotgan mega-savdo-investitsiya bitimlarining yuzaga chiqishi bilan yanada dolzarb mavzuga aylanib, ko'pchilikning etiborini oziga qaratdi.<sup>13</sup> Aslini olganda davlatlar ortasida BITlarning tuzilishi ikki tomon investorlari uchun ma'lum ma'noda huquqiy himoyaning borligini bildirib, BITlar o'rni kelganda investitsiyaning o'shishiga sabab bo'luvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin. Biroq investitsiya arbitraji quyidagicha muammolarni tug'dirmoqda. ***Birinchidan***, davlatlarning mutlaq ko'pchiligi BITlar kelajakda bunday keng darajada va chuqur sharxlanishini va investorlar tomonidan keng qo'llanilishini kutishmagan.<sup>14</sup> Chunki, BITlar ikki davlat rahbarlari uchrashuvi paytida 'nomiga' tuzilgan va hatto ba'zi bir ishlarda kuzatilishicha, oldin tuzilgan BIT nizolashuvchi davlat arxivida topilmagan.

<sup>11</sup> Manba uchun qarang, See UNCTAD, Investment Dispute Settlement Navigator <http://investmentpolicyhub.unctad.org/ISDS/CountryCases/226?partyRole=2>

<sup>12</sup> Bu mavzuga oid ilmiy ishlar juda ham ko'p. Ularning biri sifatida, qarang, Yackee, Jason Webb. Sacrificing sovereignty: Bilateral investment treaties, international arbitration, and the quest for capital. THE UNIVERSITY OF NORTH CAROLINA AT CHAPEL HILL, 2007.

<sup>13</sup> Bu mavzuda Simon Lester tomonidan uyushtirilgan va turli soha vakillari o'rtasida ketayotgan qiziqarli video tortishuvni tomosha qilsih qarang, <http://www.cato-unbound.org/issues/may-2015/investor-state-dispute-settlement-getting-rules-right>

<sup>14</sup> Kanadalik arbitr Todd Weiler AQSH hukumatining BITlar uchun tegishli vazirligi har bir BIT moddasining kelajakda qanday huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirishini oldindan bilganligini quyidagi kitobida ochib bergan. Qarang, Weiler, Todd. The interpretation of international investment law: equality, discrimination and minimum standards of treatment in historical context. Martinus Nijhoff Publishers, 2013.

**Ikkinchidan**, investitsiya arbitrajari tabiatni muhofaa qilish, isnon huquqlari, toza suv bilan taminlash, tabiiy yodgorliklarni himoya qilish, aholi sog'ligini saqlash kabi juda ham davlat uchun 'nozik' sohalarda yuz bergan ishlarni ham o'zining yurisdiksiyasiga olib, ijtimoiy sohadagi investitsiya qabul qiluvchi davlatning ichki ma'muriy qarorlari va qonunchiligini ham xalqaro huquqqa ko'ra noqonuniy deya qaror chiqara boshladi. Natijada, davlatlar, xususan kambag'al davlatlar katta jarimalar to'lashga majbur bo'lishmoqda.<sup>15</sup> **Uchinchidan**, investitsiya arbitrajining demokratik etishmovchiligi (*democratic deficit*) masaladir.<sup>16</sup> Yani, davlatlarning ichki sudlari sudyalari mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumiga muvofiq ravishda va fuqarolar oldida javobgar bo'lgan parlament va ijro etuvchi organ tomonidan tayinlanadi va shu ma'noda mahalliy sudlarning fuqarolar oldidagi hisobdorligi uchun ma'lum ma'nodagi huquqiy tiyb turish tizimi mavjuddir. Biroq, bunday hisobdorlikka asoslangan demokratik asosni investitsiya arbitrajida ko'rib bo'lmaydi. Chunki, har bir taraf bittadan hakamlar uchun nomzod ko'rsatadi va ko'rsatilgan ikki nomzodlar o'z navbatida uchinchi hakam- arbitraj raisini tayinlashadi. Ushbu uch hakamdan iborat bo'lgan investitsiya arbitraji mamlakat uchun juda muhim bo'lgan masalalarni hal etadi, vaholanki, ularning mamlakat fuqarolari oldida hech qanday hisobdorlik majburiyati mavjud emas va shu bilan birga ularning qarorlarini to'g'rilovchi yuqori instantiya sudi ham mavjud emas.<sup>17</sup> **Tortinchidan**, investitsiya arbitraji juda ham qimmat jarayon bo'lib, ikkala tomon - xorijiy investor va davlat juda katta pul miqdoriga xorijiy advokatlik firmalarini yollashga majbur bo'lishadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, da'voni yutqazmaslik uchun davlatlar odatda birgina ish uchun o'rtacha 4.5 million AQSH dollariga yaqin miqdorda advokatlik xarajatlarini to'lashadi.<sup>18</sup> Bunga albatta o'sha mamlakatning tegishli iroda xodimlarining arbitraj joyi bolgan Parij, London, Stokgolm yoki Vashington kabi katta va qimmat shaharlarga qiladigan safar xarajatlari albatta kirmaydi. Bundan tashqari, investitsiya arbitraji chiqargan qaror natijasida davlatlar juda katta summadagi jarimalarni investorlarga to'lashga majbur bo'lishligidir. Misol uchun, Rossiyadagi Yukos ishini ko'rib chiqqan uch hakam o'tgan yili (2014) Rossiyaning xorijiy investorlarga 50 milliard AQSH dollari miqdoridagi jarima to'lashi lozimligiga qaror qildi.<sup>19</sup> Va eng ohirgisi- **beshinchidan**, keyingi paytlarda odat huquqi mamlakatlarida mavjud bolgan va qit'a huquqi

---

<sup>15</sup> Bu masala yuzasidan qarang, Franck, Susan D. "Occidental Exploration & Production Co. v. Republic of Ecuador. Final Award. London Court of International Arbitration Administered Case No. UN 3467." American Journal of International Law (2005): 675-681.

<sup>16</sup> Ba'zilar uni 'legitimacy crisis' deb nomalashgan. Ularning nima ekanligini korish uchun qarang, Stephen M. Schwebel, "In defense of bilateral investment treaties," No.135, Columbia FDI Perspectives.

<sup>17</sup> ICSID ostida ko'rilgan ishlarni albatta ma'lum bir asoslarga ko'ra bekor qilish uchun da'vo qilsa bo'ladi (Annulment Procedure). Faqat ushbu bekor qilish da'vosi doirasi juda ham cheklangan bo'lib, appellatsiya instansiyasi tizimini mutlaq ma'noda aks ettirmaydi. Faqatgina uning ma'lum bir qism funksiyalarini bajaradi xolos. Investitsiya arbitrajari ustidan appellatsiya institutini joriy etish bo'yicha fikrlar yuzasidan qarang, Anna Joubin-Bret, "Why we need a global appellate mechanism for international investment law," Columbia FDI Perspectives, No.146. Bunday harakatlar va fikrlar natijasida Evropa Ittifoqi tashabbusi bilan keyingi paytlarda tuzilayotgan BITlarda ikki pog'onali Investitsiya Sudi joriy etilmoqda. Qarang, EU-Vietnam Free Trade Agreement: Agreed text as of January 2016 <http://trade.ec.europa.eu/doclib/press/index.cfm?id=1437>

<sup>18</sup> Qarang, Hodgson, M. "Costs in Investment Treaty Arbitration: The Case for Reform." Transnational Dispute Management (TDM) 11.1 (2014), 1-2 betlar. Maqolaning elektron shaklini o'qish uchun qarang,

<http://www.allenoverly.com/SiteCollectionDocuments/Costs%20in%20Investment%20Treaty%20Arbitration.pdf>

<sup>19</sup> Yukos ishi bo'yicha investitsiya arbitraji chiqargan qarorni o'qish uchun qarang, [http://www.pca-cpa.org/shownews.asp?ac=view&pag\\_id=1261&nws\\_id=440](http://www.pca-cpa.org/shownews.asp?ac=view&pag_id=1261&nws_id=440)

mamlakatlarida deyarli kuzatilmaydigan yangi turdagi sub'ektlarning investitsiya arbitraj bozoriga kirib kelishi kuzatilmoqda. *Third Party Funding Organizations*, yani *Da'voni Moddiy Yollar bilan Sotib Oladigan Uchinchi Shaxs Tashkilotlar* maydonga chiqishni boshladi va jozibali investitsiya nizolarini kambag'al yoki da'vo qo'zgatish masalasini yaxshi bilmaydigan investorlardan sotib ola boshlashdi.<sup>20</sup> Ishning ikki tomonning kelishuvi bilan tugashi holatlari ham borligini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu uchunchi shaxslarning da'voni qo'zgatgan investorga qay darajada manfiy ta'sir etishlarini va natijada bu holat butun da'vo procedurasiga ta'sir qilishini osonlik bilan ilg'ab olsa bo'ladi. Chunki, bu tashkilotlar asosan har bir da'vodan moddiy foyda ko'rishni oldilariga maqsad qilgan xususiy tijorat shirkatlaridan o'zgasi emas. Ushbu masalaning yana bir jiddiy tomoni shundan iboratki, yurtimizga nisbatan qo'zgatilgan investitsiya da'volaridan biri, *Oxus Gold* ishida ham shunday uchunchi shaxslar ishtiroki borligi yaqinda habar qilindi.<sup>21</sup>

*Demak, investitsiya arbitraj davlatlar suverenitetiga ma'lum ma'noda potensial aralashuvni namoyon qilar ekan, bunday tizimdan butunlay chiqib ketilsa bo'lmaydimi?* Bu masala yuzasidan umumiy qilib aytganda 2 xil qarash mavjud. Bazi bir mualliflarning fikricha, davlatlar xorijiy investorlar bilan juda ko'p sohalarda davlat shartnomasini tuzishadi va unda har bir masalaning huquqiy yo'llar bilan qanday hal etilishi, ikki tomonning huquq va majburiyatlari o'ta mufassal bayon etiladi. Shuning uchun yuqoridagiga o'xshash muammolarni tug'diruvchi BITlarga hech kimning ehtiyoji yo'q va ular bekor qilinishi, to'xtalishi va bundan keyin tuzilmasligi lozim deyishadi.<sup>22</sup> Uarning fikricha, *davlat shartnomalari (state contracts)* muammolarni hal etish uchun etarlidir.<sup>23</sup> Boshqa bir guruh mualliflarga kora, BITlar mamlakatlarning barqaror taraqqiyotiga musbat ta'sir ko'rsatib, o'sha mamlakatda huquq ustuvorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun BITlar va ulardagi investitsiya arbitrajiga borishga davlatlarning roziligi butunlay bekor qilinmasligi lozim, balki har bir modda o'sha davlatning ehtiyoji, iqtisodi va ijtimoiy holatiga ko'ra yaxshilab o'ylangan holda ishlab chiqilishi va BITlarning ichida *ad hoc*, yani ehtiyojga ko'ra appelyatsiya tizimini joriy qilish lozim deyishadi.<sup>24</sup> Boshqacha so'z bilan aytganda, har bir davlat barqaror taraqqiyot prinsipiga asoslangan holda o'zining BIT modelini ishlab

---

<sup>20</sup> Qarang, De Brabandere, Eric, and Julia Lepeltak. "Third-Party Funding in International Investment Arbitration." ICSID review (2012). Ushbu muammoning ichki sudlar nuqtai nazaridan tahlilini o'qish uchun qarang, Daniel Kalderimis, Chapman Tripp, Third party funding in international arbitration – lessons from litigation?

<http://kluwerarbitrationblog.com/blog/2014/12/15/third-party-funding-in-international-arbitration-lessons-from-litigation/>

<sup>21</sup> Oxus Gold plc v. Republic of Uzbekistan, the State Committee of Uzbekistan for Geology & Mineral Resources, and Navoi Mining & Metallurgical Kombinat, UNCITRAL. Qarang, <http://www.italaw.com/cases/781#sthash.ZZ4kvcK4.dpuf>

Uchinchi shaxslar tomonidan Oxus Gold ishining moddiy taminotiga yordamga oid qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun qarang,

<http://www.fulbrookmanagement.com/wp-content/uploads/2013/10/Oct-2013-DossierX.pdf>

<sup>22</sup> Misol uchun bir guruh olimlar 2010 yili Kanadada Investitsiya Rejimini tubdan isloh qilish uchun ommaviy chaqiriq bilan chiqishgan. Qarang, <http://www.osgoode.yorku.ca/public-statement-international-investment-regime-31-august-2010/>

<sup>23</sup> Qarang, Jason Webb Yackee. Do We Really Need BITs? Toward a Return to Contract in International Investment Law 3 ASIAN JOURNAL OF WTO AND HEALTH LAW 121 (2008)

<sup>24</sup> Joachim Karl, "An appellate body for international investment disputes: How appealing is it?," Columbia FDI Perspectives, No.147.



chiqishi va o'sha modelni asos qilib yangi BITlarni tuzishi lozim.<sup>25</sup>

**Muallif ham ushbu ikkinchi guruhning fikrlariga qo'shiladi.** Investitsiya arbitrajini yuzaga keltiruvchi va uning huquqiy bazasini taqdim qiluvchi BITlarni bekor qilish kerak emas. Uning bir necha sabablari mavjud. **Birinchi**dan, hamma ishlarda ham investitsiya arbitraji investor foydasiga qaror chiqargani yo'q va investor yutgan ishlarining mutlaq ko'pchiligida investor da'vo qilgan summani juda oz qismi qondirilgan.<sup>26</sup> **Ikkinchi**dan, garchi BITlarga asoslangan holda faqat investorlarga ishni arbitrajga olib kela olsalar ham, ularda davlatlar ham qaytarma davvo qilish (*counterclaims*) imkoniyatiga ega ekanligini ko'zdan qochirmaslik darkor. Keyingi paytlarda yangi avlod BITlari tuzilib, ularda oldinlari yo'q bo'lgan xorijiy investorlarning majburiyatlari ham qayd etilmoqda. Bu esa kelajakda davlatlarga ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlarni xalqaro arbitrajlarda javobgarlikka tortish imkoniyatini beradi. Chunki, ko'p hollarda davlatga zarar etkazgan investorlarning mol-mulki xorijiy malakatlarda joylashgan bo'lib, ishki davlat sudlari qarorlari bilan da'voni qondirish deyarli imkonsiz bo'ladi. **Uchinchi**dan, BITlarning bekor qilish va ICSID kabi mashhur tashkilotlardan chiqish dunyo davlatlari va xorijiy investorlar doiralari etiborini o'ziga tortadi. Natijada mamlakatimizning investitsiyalarni o'zlashtirish jozibadorligiga katta manfiy zarar etishi ehtimoli bor.<sup>27</sup> **To'rtinchi**dan esa, chet elga investitsiya qilayotgan O'zbekistonlik shirkatlar manfaatini ham o'ylagan holda, ushbu tizimdan chiqmaslik lozim. Birgina misol, 2016 yilda ilk bor O'zbekiston shirkatlari investor sifatida mamlakatimiz va qo'shni Qirg'iziston bilan tuzilgan 1996 yildagi BITga muvofiq Qirg'izistonga nisbatan arbitraj ishini boshlatishgan.<sup>28</sup>

#### 4. Takliflar

Shu sababli muallif investitsiya arbitrajiga oid masalaning hal etilishi uchun quyidagicha takliflarni o'rtaga tashlaydi.

1) **O'zbek modelini ishlab chiqish:** BITlar hammasi qaytadan O'zbek Modeliga asoslangan holda ko'rib chiqilishi lozim. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'zimizning O'zbek BIT Modelimizni qabul qilishimiz lozim.<sup>29</sup> Unda yurtimizning o'ziga hos taraqqiyoti, mahalliy an'analari, iqtisodiy siyosati va ishlab chiqaruvchilarning manfaati; soliq, atrof-muhitni himoyalash, aholi sog'ligini saqlash, mehnat huquqiga oid masalalar va davlatning fuqarolar manfaati uchun qilinadigan tartibga soluvchi chora tadbirlari inobatga olinishi va shunga kora

<sup>25</sup> Barqaror taraqqiyot nuqtai nazaridan davlatlar uchun model o'laroq taklif qilingan xalqaro institut IISDning BIT modelini korish uchun qarang, <https://www.iisd.org/investment/capacity/model.aspx>

<sup>26</sup> Qarang, Stephen M. Schwebel, "In defense of bilateral investment treaties," No.135, Columbia FDI Perspectives

<sup>27</sup> Aslida bir necha yillar muqaddam Boliviya, Venesuela, Ekvador kabi Lotyin Amerikasi davlatlari ICSIDga a'zollikni to'xtatishlarini bildirishdi. Shuning bilan birga Janubiy Afrika Respublikasi, Avstraliya va Indoneziya kabi davlatlar esa mavjud BITlarni to'xtatish, ularni qaytadan ko'rib chiqish yoki bo'lmasam BITlarni umuman tuzmaslikka oid bayonotlar bilan chiqishdi. Biroq, bunday mamlakatlar juda o'z bolib, dunyoning juda ko'p davlatlari investorlarning da'volariga uchrayotganligiga qaramasdan sog'lom investitsiya muhitini shakllantirish uchun hozirgi bor tizimni saqlab qolishni afzal bilishmoqda.

<sup>28</sup> JSC Tashkent and others v. Kyrgyzstan JSC Tashkent Mechanical Plant, JSCB Asaka, JSCB Uzbek Industrial and Construction Bank, and National Bank for Foreign Economic Activity of the Republic of Uzbekistan v. Kyrgyz Republic (ICSID Case No. ARB(AF)/16/4)

<sup>29</sup> Misol uchun bunday Model BITlar dunyoning juda ko'p rivojlangan davlatlarida mavjud va har bir davlat yangi BIT tuzayotganida o'zining Model BITsiga asoslangan holda muzokaralarni olib boradi. Qarang, <http://www.italaw.com/investment-treaties>

BITlar o'zgartirilishi, **ularning har bir moddasi** qaytadan jiddiy muhokama va muzokora qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2) **Ichki huquq tizimini isloh qilish**: Investitsiya arbitrajida doimo yutish va katta jarimalar ostida qolmaslik uchun ichki huquq tizimimizning ham taraqqiy etganligi katta rol o'ynaydi. Misol, uchun ma'muriy huquq sohasida dunyoning eng rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan huquqiy prinsiplarning qonunchilik tizimimizda qay darajada tadbir etilganligi investitsiya arbitraji qarorlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, ulardagi hakamlar ishni ko'rayotganda halqaro huquq prinsiplari bilan bir qatorda ichki qonun normalarini va ularning amaldagi ijrosini chuqur tahlil etishadi.

3) **Investitsiya arbitrajiga oid pedagogik faoliyatni kuchaytirish**: Ayniqsa, yuridik fakultetlar talabalari va investitsiyaning asosiy muammosi bilan yuzma-yuz turadigan davlat xizmatchilari orasida tizimli ravishda pedagogik faoliyat olib borilishi, talabalarning **halqaro moot court** musaboqalariga tayyorgarlik ko'rishi va qatnashishi uchun moddiy va ma'naviy yordam berilishi lozim. Chunki shu paytgacha Vashington, London, Parij yoki Singapurda o'tkaziladigan international moot court larda yurtimizdan chiqqan milliy jamoani topish deyarli imkonsiz (Halqaro Westminster Universiteti jamoasidan tashqari).

4) **Tashkent International Center for Investment Law (TICIL) ning ochilishi**: Butun jahon Savdo tashkilotining qoshida tashkil qilinib juda muvaffaqiyatli ish olib borayotgan Advisory Center for WTO Law kabi Markaziy Osiyo davlatlari ortasida ham shunday pro-bono shaklida, ammo a'zo davlatlarning yordami bilan ishlaydigan huquqshunoslar markazi tashkil qilinishi lozim.<sup>30</sup> Bunday tashabbus shu paytgacha Lotin Amerikasi va ASEAN mamlakatlari tomonidan ilgari surilgan, ammo muvaffaqiyat qozonmagan. Shunga qaramay, Toshkentni bundan keyin katta Markaziy Osiyodagi arbitraj markazi sifatida kuchaytirib ketish uchun tashabbus qo'lga olinishi va investitsiya nizolarida davlatlarga yordam ko'rsatuvchi bunday markazning tashkil etilishi bugungi kunning ehtiyojidir. Bu jarayonda ADB, va UNCTAD kabi halqaro tashkilotlardan ham katta yordam olsa bo'ladi. Markaz esa rivojlangan horijda tahsil olgan va doimiy ishlovchi halqaro arbitraj mutaxassisleri va horijda advokatlik bilan shugullanuvchi maslahatchi kadrlar bilan to'ldirilsa, ayni muddao bolar edi.

---

<sup>30</sup> Bunday markazning ochilishining lozimgiga oid qarash uchun qarang, Alisher Umirdinov, The case for an advisory center on international investment law, *Columbia FDI Perspectives*, 2016 (ISSN 2158-3579)